



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY TARAQQIYOT
VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VAZIRLIGI HUZURIDAGI
“LOYIHALAR VA IMPORT KONTRAKTLARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH MARKAZI”
DAVLAT UNITAR KORXONASI**

2022-yil 10 May № 14/01-06/1-1450 100084, Toshkent, Amir Temur shoh ko'chasi, 107-B

**“Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini
qurish va rekonstruksiya qilish direksiyasi”**

DUK

Tender hujjatini kompleks ekspertiza natijalari bo'yicha

XULOSASI

Loyihaning nomi

4K253a “Islom Karimov shoh ko'chasiga” shaxobcha avtomobil yo'lidan M39 “Toshkent-Termiz” avtomobil yo'liga” ulanuvchi yangi yo'nalishdagi 4 km avtomobil yo'li va 700 pm uzunlikdagi yo'l o'tkazgich qurish obyekti ishchi loyihasini (IL) ishlab chiqish.

**Buyurtmachi arizasining
raqami va sanasi**

2022-yil 1-martdagi DI/05-320-sonli xati.

Buyurtmachi

“Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish direksiyasi” DUK O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi PQ-98-son qarori.

**Loyha amalga oshirilishi
uchun asos**

Davlat byudjet mablag'lari hisobidan.

**Moliyalashtirish manbai
Loyihaning chegaraviy
narxi**

5 482 337 077 so'm, QQS bilan,
4 767 249 632 so'm, QQS siz.

**Ekspertiza o'tkazish
uchun asos**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-yanvardagi PQ-3464-sonli va 2018-yil 20-fevraldagi PQ-3550-sonli qarorlari.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK (keyingi o‘rinlarda Markaz deb yuritiladi) “4K253a “Islom Karimov shoh ko‘chasiga” shaxobcha avtomobil yo‘lidan M39 “Toshkent-Termiz” avtomobil yo‘liga” ulanuvchi yangi yo‘nalishdagi 4 km avtomobil yo‘li va 700 pm uzunlikdagi yo‘l o‘tkazgich qurish obyekti ishchi loyihasini (IL) ishlab chiqish” obyekti bo‘yicha tender hujjatining ish hajmlari va ularning narx parametrlari qismida takroriy o‘tkazilgan kompleks ekspertiza natijalari bo‘yicha e’tirozlar mavjud emasligi va davlat xaridlarini belgilangan tartibda o‘tkazish mumkinligini ma’lum qiladi.


O‘z o‘rnida, xarid jarayonlari boshlanishidan avval obyekt nomiga hukumatning tegishli qarorlariga muvofiq, taqdim qilingan asosga o‘zgartirish kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Buyurtmachi davlat xaridlarini maxsus axborot portalida, ommaviy axborot vositalarida va rasmiy veb-saytlarda tender (tanlov) o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lonni joylashtirish orqali qurilish pudrat tashkilotlarini keng jalb etilishini ta’minlashi kerak.


Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi 261-sonli “Markazlashtirilgan kapital qo‘yilmalar hisobidan amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o‘tish to‘g‘risida”gi qarorining 1-ilovasi 4-bandiga muvofiq buyurtmachi tomonidan aniqlangan boshlang‘ich qiymati tanlov savdolari (tenderlar) o‘tkazishda yo‘nalish hisoblanadi va pudrat shartnomasi (kontrakt) tuzish uchun asos bo‘lib xizmat qilmaydi. Obyektning shartnoma qiymati o‘tkazilgan tanlov savdolari (tenderlar) natijalari bo‘yicha aniqlanadi.

O‘z navbatida buyurtmachi haqqoniylilik, ratsionallik, iqtisod tamoyillariga rioya qilish, moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunda nazarda tutilgan xaridlarni amalga oshirishda shaffoflik va korrupsiyaga yo‘l qo‘yilmasligini ta’minlashga javobgardir.

M. Allabergenov



B. Xusanov



G‘. Shodihev



L. Do‘smuhamedov

K. Raximbekov